

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI O'QITISH METODIKASI”

KAFEDRASI

KURS ISHI
KURS ISHI

**Mavzu: Akademik litseylarda fe'l va uning ma'noviy turlarini
o'rganish.**

Bajardi: Ibragimova Nilufar

Qabul qildi: o'qit. F.Yuldashev

Navoiy 2015

**Mavzu: Akademik litseylarda fe`l va uning ma`noviy turlarini
o`rganish.**

Reja.

Kirish.

I bob Ona tili o`qitishning maqsad va vazifalari

1.1 Akademik litseylarda fe`l so`z turkumini o`rgatishda nazariy bilimlar berish

1.2 . Felning ma`noviy guruhlari haqida o`quvchilarga ma`lumot berish

II bob. Ona tili darslarida yangi inovatsiyon texnologiyalarning o`rni

2.1 Fe`l so`z turkumini o`rgatishda interfaol usullardan foydalanish.

2.2 Fe`l so`z turkumi yuzasidan dars ishlanmalar

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar

Kirish

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtiradigan, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos ravishda xayotga tatbiq qilishga qaratildi. Zero, kelajagi buyuk davlatni barpo etishda yangicha fikrlaydigan, yuksak malakali va chuqur bilimli mutaxassislarni, yoshlarni, tayyorlash davr talabi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanishni boshlagandan beri ilm-fan va milliy madaniyatimizni har bir sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Yurtboshimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" nomli kitobida ta'kidlaganlaridek: "O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rnini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda".¹

Shu ma'noda prezidentimiz I.A.Karimovning "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish—ustuvor maqsadimizdir" va "Asosiy vazifamiz—vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzalari² ham ilm-fan rivojiga katta omil bo'ldi.

Kelajak avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularda milliy istiqlool g'oyasini rivojlantirishda ta'lim tizimining o'rnini beqiyos. Zero, «O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni... bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin» degan so'zlarni chuqur anglagan holda, ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasi ta'lim tizimimizda ilmiy nuqtai nazardan hozirgi kunda o'z echimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri hisblanadi.³

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilingach, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1X sessiyasida Prezidentimiz I.Karimov ta'lim-tarbiyaning uzluksizlik masalasiga ham to'xtalib shunday degan edilar: "Barcha amaldagi o'zgarishlar va tadbirlar asosan yuzaki bo'lib, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimini tashkil qilish muammolarini echib bergan emas."

Yurtboshimizning tashabbuslari va bevosita rahbarliklari ostida yaratilgan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da uzluksiz ta'limga asos solindi.

¹ I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T. ;Ma'naviyat. 2008-yil. 34 bet.

Milliy dastur asosida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi turlarining har biri uchun Davlat talablari va Davlat ta'lim standartlari, ularga mos ravishda o'quv dasturlari yaratilib, ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Har bir ta'lim turi uchun ta'lim mazmunini tanlashda ta'limning uzluksizligi va uzviyligiga alohida e'tibor berilgan.

I Bob. Ona tili o'qitishning maqsad va vazifalari.

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy, madaniy ma'naviy soxalaridagi keng ko'lamli ishlar, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'limining barcha bo'g'inlarida ona tili o'qitishni tashkiliy va mazmuniy jihatdan qayta qurishni taqozo etadi.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi - og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini fikrlash qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat.

O'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarni hosil qilish; mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish kommunikativ savodxonlikni oshirish milliy istiqlol g'oyasini sharqona tarbiyani shakllantirish talaba shaxsini ma'naviy yuksaltirishdan iborat.

O'zbek tilini o'qitishda quyidagi maqsadlar alohida ahamiyatga egadir.

1. Amaliy maqsad.

2. Ta'limiy maqsad.

3. Tarbiyaviy maqsad.

4. Rivojlantiruvchi maqsad.

Amaliy maqsad; dars o'tishda til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Ta'limiy maqsad ; talabalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini egallash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad; bu maqsadda talabalarga ma'naviy, g'oyaviy-estetik tarbiya berish hamda o'z vataniga, ota onasiga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiya berishdan iborat.

Rivojlantiruvchi maqsad ; talabalarni aqliy jihatdan rivojlantirish o'tilayotgan mavzu yuzasidan savol javob qilish va darsni mustahkamlash.

Ona tili o'qitishning asosiy vazifalari.

Talabalarda erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, bir ma'noni turli holatlarda bera olish ko'nikmasi shakllangan, adabiy nutq me'yorlarini egallangan, yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazish ona tili o'qitishning vazifasiga kiradi.

O'zbek tilini o'qitishda quyidagi vazifalar bajariladi.

- o'quv mashg'ulotlarini til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish.
- O'quvchi faolyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib boorish, so'z boyligini oshirishi tafakkur doirasini kengaytirish, nutq salohiyatini (og'aki va yozma matn yaratish) shakllantirish.
- o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo'l vosita va usullarini o'rganish.

Demak, o'zbek tili mashg'ulotlarida talabani ijodiy fikrlashga yo'naltirish, so'z tanlash, gapda so'zni to'g'ri va o'rinli qo'llash o'z fikrini aniq, ixcham, ravon ifodalashga o'rgatish til o'qitishning birlamchi vazifasi bo'lsa,

“talaba – talaba”, “talaba- o'qituvchi” sistemasida o'zaro muloqotni, bahsu munozarani to'g'ri tashkil qilish, talaba tafakkurini rivojlantirish jarayonlarini oqilona boshqarish, fikr ifodalash malakasini shakllantirishni o'rganish, talabalarni o'qituvchilik mahorati va ilg'or texnologiya bilan tanishtirib borish ona tili o'qitishning ikkinchi va bag'oyat muhim vazifasi hisoblanadi.

Izoh. Har bir talaba o'qituvchi Ona tili o'qitishning maqsad vazifalarini puxta bilmog'imiz kerak.

Ona tili o'qitishning maqsadi deganda biz avvalom bor o'z ona tilimizni o'rganishda til me'yorlaridan unumli foydalanishimiz, va ma'naviy, g'oyaviy-estetik tarbiyani berishni tushinishimiz kerak.

Vazifa deganda esa oldimizga qo'yilgan har qanday dars mashg'ulotlarini til va nutq hodisalarini farqlashni bilishimiz, ijodiy fikrlashni, so'z boyligimizni oshirish nazarda tutiladi.

Ta'lim tarbiya haqida Abu Nasr Farobiy qarashlari. Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ya'ni “Baxt – saodatga erishuv to'g'risida” gi asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr yuritadi.

Farobiy ta'lim tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sahaladi.

Ta'lim- insonga o'qitish tushuntirish asosida nazariy bilim berish;

Tarbiya- esa muayyan fikrni egallash uchun zarur bo'lgan axloq normalari va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Xulosa qilib aytganda, Farobiy pedagogic ta'limotning asosida komil insonni shakllantirish insonni o'z mohiyati bilan ijtimoiy, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillika erishadi, degan falsafiy qarashi turadi.⁴

1.1 Fe'l so'z turkumini o'rgatishda nazariy bilimlar berish.

Fe'l so'z turkumini o'rganishda dastlabki ma'lumotlar boshlang'ich va umimiy o'rta ta'limda olinadi. Akademik litseysey va kasb hunar – kollejlariida mazkur bilimlar kengaytiriladi. Oily ta'limda esa bu olingan bilimlar yanada kuchli nazariy bilimlar bilan kengaytiriladi va yangi ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

Fe'ling semantik va gramatik belgilarini izohlashda ularni boshqa so'z turkumlari bilan qiyoslash maqsadga muvofiq. Ot so'z turkumi predmetning nomini Sifat uning belgisini bildirsa Fe'l predmetning harakati yoki holatini bildiradi, Shaxs bildiruvchi har bir fe'l o'zi bog'langan so'zning gapda bo'lish bo'lmasligidan qat'iy nazar yaxlit bir gapni hosil qila oladi. Ot va sifat bunday xususiyat yo'q ot turlanadi fe'l tuslanadi. Fe'l boshqa so'z turkumlaridan gramatik belgilari bilan ham farq qiladi.⁵

Harakat-holat ma'nosini ifodalab, nima qildi, nima qilyapti, nima qiladi, singari so'roqlariga javob bo'luvchi so'z turkumiga fe'l deyiladi. Masalan; Talaba o'qidi (nima qildi?) Mashinalar guvullaydi.(nima qiladi?) kabilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l so'z turkumi, fe'l zamonlari, tuslanish, tub va yasamaligi, mayli, nisbati, fe'l shakllari kabi guruh va mavzularga bo'lib o'rganiladi.

Fe'l so'z turkumini o'rganishda so'z xazinasini boyitish, nutqiy salohyatni yuksaltirish imkoniyatlari benihoya katta.

Fe'l so'z turkumini o'tishda uning lug'aviy shakllari hamda ma'noviy guruhlarini bilishimiz zarur.

Masalan 1. Fe'l tuzilishiga ko'ra turlari.

1. Sodda fe'llar. *Tuza, yoz, gapir, tashla, o'yna.*

2 Qoshma fe'llar. *Ish oldi, paydo bo'ldi, hal qildi, pishirib oldi.*

3. Juft fe'llar. *Kuldi-qo'ydi, bildi-qo'ydi, yig'ladi-siqtadi.*

4. Takroriy fe'llar. *Bordi-bordi, chizdi-chizdi, kuldi-kuldi.*

Misollar. 1. Dildora bilan Jamila uzoq suhbatlashdi.

2. Bir zumda shamol paydo bo'ldi.

3. O'qituvchimiz darsda kuldi-qo'ydi.

⁴ K.Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. T.: 2005. 82 bet.

⁵ B.To'xliyev, M. Shasiyeva, T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. 115 bet.

4. Anvar kuldi-kuldi va yo`lda davom etdi.

2. Fe`l shakllari.

Harakat nomi: *Moq, uv, yasha+moq, chiq+ish.*

Sifatdosh: *gan,-qan,-digan,-yotgan,- r,-ar,-ajak,-o`qi+gan,- kel+jak.*

Ravishdosh; *b,-ib,-a,-ya,-ma,- gain,-qani,-guncha,-kach,-qach.*

Misollar. Yashash uchun kurashmoq.

Umida yo`l ustida yotgan ilonni ko`rdi.

Fe`l zamonlari.

O`quvchi kommunikativ savodxonligini ta`minlashda fe`lning uslubiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fe`l zamonlari o`rganilayotganda zamon shakllarini hosil qiluvchi vositalar shakldoshligiga e`tabor qilish lozim. Zamon shakldoshlarini hosilga oid amaliy mashqlar nutqiy taraqqiyot uchun o`ta muhim. Talabar fe`l zamonlari bilan tanishayotganda zamon qo`shimchalarining almashinib ishlatilishiga oid ijodiy- amaliy ishlarni bajarishlari maqsadga muvofiq bo`ladi.

Fe`l zamonlarini o`rganish uchun “o`tgan zamon fe`llari” ni misol qilib olamiz.

Mazkur fe`llar asosan to`rt guruhga bo`lib o`rganiladi.

O`tgan zamon fe`llari o`tmishda bajarilgan ish- harakatning nutqdan oldingi paytning ham turlicha bo`lishi mumkinligi bilan farqlanadi.

O`tgan zamon fe`llari aniq o`tgan zamon, uzoq o`tgan zamon hikoya, o`tgan zamon va o`tgan zamon davom fe`llariga bo`linadi.

1. Aniq o`tgan zamon fe`li - di shakl yasovchi va shahs-son, qo`shimchasini fe`l o`zagiga qo`shish bilan yasaladi; **o`yladi, bilmadi.**

Bu shakl ish- harakatning so`zlovchi so`zlayotgan paytgacha bajarilgan yoki bajarilmaganini aniq ifodalaydi.

Masalan *Uyga keldi, imtihondan o`tdi.*

2. O`tgan zamon hikoya fe`li -b (-ib) va edi to`liqsiz fe`li (-b, ib,+edi) bilan hosil qilinadi.

Bu shakl nutq paytida ancha ilgari bajarilgan harakatni hikoya qilish yo`li bilan bildiriladi;

3. Uzoq o`tgan zamon fe`li “gan” va –‘gan+edi” qolipi bilan hosil qilinadi, to`liqsiz fe`l yoki –gan shaklli sifatdoshga shahs-son qo`shimchajari qo`shiladi: **kelgandim, kelgan eding...**

Bu shaklda bajaruvchi o`zining ilgari bajargan harakati bilan tasvirlanadi

4. O`tga zamon davom fe`li – r (-ar) + edi qolipida hosil qilinadi;

Muzaffar yurist bo`lishni orzu qilar edi.

O`tgan zamon fe`lini o`tishda amaliy ishlardan foydalanishimiz mumkin.

1. O`tgan zamon fe`llarning to`rt xil ko`rinishiga moslab gap tuzish.

2. Matn yaratishning bosqichli sistemasi bo`yicha ishlash orqali so`z

boyligini oshirish, so`z birikmalari hosil qilish, gap tuzish matn yaratish malakalarini shakllantirishdir.

Fe`l nisbatlari.

Fe'l nisbatlarida ish- harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat anglashiladi.

-dir (-tir), -t; -il (-l) ; -in (-n) ; -ish (-sh) qo'shimchalari fe'l nisbatlari qo'shimchalaridir. Ular fe'lning o'zagiga, agar fe'l yasovchi qo' keyin bo'lsa, yasovchi qo'shimchalardan keyin qo'shiladi. Fe'l nisbatlari bajaruvchining qay tarzda ishtirok etishini ifodalab keladi. O'zbek tilida fe'lning beshta nisbat shakli bor. Ular quyidagilar.

1. Aniq nisbat; o'qidi, kelyapti, bormoqchi. Kabi ma'lum shaxs yoki narsa-buyum tomonidan bajarilib, maxsus nisbat qo'shimchalari olmaydi.

2. O'zlik nisbat; **-n (in), -l (-il)**, qo'shimchalari bilan hosil bo'lib, ish-harakat bajaruvchining o'zida qolganini anglatadi.

3. Majhul nisbatdagi fe'llar. Ish harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydi, ammo **-n (-n), -l (il)** kabi shakldosh qo'shimchalar bilan yasaladi; **to'plandi, yuvildi, tokildi.**

O'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar bir xil shaldosh qo'shimchalar bilan hosil qilinganda, ularning nisbatlari gap mazmunidan aniqlanadi.

Buni bilishimiz uchun qiyoslash metodidan foydalanamiz.

Masalan: Mukofot berildi (kim tomonidan?) O'qishga berildi (kim?) qishga o'tin tayyorlandi, (kim tomonidan?) kabilardir.

4. Birgalik nisbat. **-sh (-sh)** qo'shimchasi bilan yasalib, bir necha shaxs tomonidan bajarilgan ish-harakatni bildiradi. O'qishdi, bajarishdi, yordamlashdi, Masalan; Uy yumushlarini birgalikda bajarishdi.

5. O'rtirma nisbat. **-t, -tir, -dir, -giz, gaz, -kiz, -qaz, -ir, -ar, iz,** kabi qo'shimchalar bilan hosil qilinib, harakatni bajarishda yana boshqa shaxsning ishtirok etganligi anglatiladi; O'qit, aytir, bildir, yurgiz, ko'rgaz, chiqar, ichir, kabilar.

Fe'lning ma'naviy guruhlar.

Fe'lning gramatik ma'nolarini o'rganish bilan bir qatorda ularni ma'naviy guruhlariga ajratish, o'zaro qiyoslash, farqlash, ular ishtirokida so'z birikmalari va gaplar qurish, mustaqil va mukammal matn yaratish yo'llarini o'rganishdan iborat. Umuman olganda fe'lning ma'naviy guruhlar to'rtta katta guruhga ajratib o'rganiladi.

1. Harakat fe'llari. *Qimirladi, siljidi, turdi, yurdi, chopdi.*

2. Natijali faoliyat fe'llari. *Tuzmoq, yasamoq, bunyod etmoq, buzmoq,*

3. Nutq fe'llari. *Shivirlamoq, aytmoq, demoq, so'zlam.*

4. Holat fe'llari. *Uxlamoq, qizarmoq, oqarmoq, sezmoq, anglamoq.*

Ma'lumki tilimizdagi ma'nodoshlarning anchagina qismini fe'llar tashkil etadi. Taniqli tilshunos A. Hojiyevning " O'zbek tili sinonimlari izohli lug'ati" da 217 fe'lning ma'nodoshlik uyasi berilgan.

Akademik litsey va kasb - hunar kollejlarda fe'l mavzusini o'rganishda mazkur uyalar ustida ishlashni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yana bir fikrni aytib o'tishimiz kerak, fe'l yasovchi qo'shimcha **La-** eng ko'p qo'llanadigan fe'l yasovchi qo'shimcha bo'lib , u ot, sifat, ravish va olmoshlardan fe'l yasaydi.

Yuzlandi,- yo'llandi,-quchoqladi,-o'yladi,-odimladi.

a) Zarina uzoq safardan kelgan akasini mahkam quchoqladi.

b) Olimjon berilgan savolni uzoq o`yladi.

Izoh.

Fe'l so`z turkumini o`rganishda talabalar so`z boyligini oshirish imkoniyatlari benihoya ko`p. O`quvchining nutqini o`stirish bola maktabga birinchi qadam qo`ygan kundan boshlanadi. Nutq ko`nikmalarining shakllanishi va rivoji izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo`ladi. Shuning uchun o`qituvchi fe'l so`z turkumining har bir bo`limiga oid mashg`ulotda o`tilgan mavzu asosida o`quvchilarning nutq ko`nikmasini o`stirishga e`tibor berishi lozim. O`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatish uzoq davom etadigan jarayon. Buning uchun faqat til va adabiyot o`qituvchilarining emas, balki barcha fan o`qituvchilarining uzluksiz va birgalikdagi mehnatlarimiz talab etiladi. Bujarayonga boshlang`ich sinfda asos solinadi, o`rta maktabda takomillashtiriladi, rivojlantiriladi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari esa o`zining eng yuqori bosqichiga ko`tarilishi lozim. SHuning uchun ham, umumiy o`rta ta`lim maktablarida va akademik litseylarda o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish uchun kurash barcha o`qituvchilarning, ayniqsa ona tili o`qituvchisining asosiy vazifasi sanaladi.

O`zbek tilshunosligida leksikani semantik maydon asosida o`rganish tilimizga sistem-struktur metodlarning kirib kelishiga borib taqaladi. Fe'lni grammatik jihatdan har tomonlama tadqiq qilish uni semantik aspektida o`rganishga asos yaratdi. O`zbek tilshunosligida fe'llarni semantik maydon asosida o`rganish o`ziga xos tarixga ega. Bu sohadagi katta izlanishlar olib borgan olimlar sifatida professorlar Iristoy Qo`chqorto'ev (nutq fe'llari), Ravshanxo`ja Rasulov (holat fe'llari), Maqsuda Sodiqova (fe'l stilistikasi), Saodat Muhamedova (harakat fe'llari), dotsentlar O`lmas SHaripova (yumush fe'llari), Turg'un Musaev (sezgi fe'llari), Zafar Siddiqov (o`zbek va turk tillaridagi qo`qruv fe'llari), Jumali SHabanov (o`zbek va turk tillaridagi faol harakat fe'llari) larni ko`rsatish mumkin. Bu tadqiqotlarda fe'llarning muayyan semantik maydoni tanlab olinib, ularning semantik, valentlik va boshqa xususiyatlari o`rganilgan.

I.2 Felning ma`naviy guruhleri haqida o`quvchilarga ma`lumot berish.

Akademik litsey darsligida fe'lnig ma`naviy guruhlarini o`quvchilarga o`rgatishda avvalom bor uni maktab darsligidagi farqini topib o`rganishimiz zarur. Fe'l haqida talabalarning o`rta umiy ta`limdan olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish fe'llardan o`rinli foydalanish ko`nikmasini shakllantirish o`qituvchining dolzarb masalasi sanaladi.

Umumiy o`rta ta`lim maktab darsligida fe'lnig ma`naviy guruhleri asosan 4 guruhga bo`lib o`rganiladi. Ular quyidagilar.

1. Jismoniy faoliyat fe'llari. *Qimirladi, siljidi, turdi, yurdi, chopdi.*
2. Aqliy faoliyat fe'llari. *Tuzmoq, yasamoq, bunyod etmoq, buzmoq,*
3. Nutqiy faoliyat fe'llari. *Shivirlamoq, aytmoq, demoq, so`zlam.*

4. Holat fe'llari. *Uxlamoq, qizarmoq, oqarmoq, sezmoq, anglamoq.*

Quyidagi berilgan mashqlarda fe'ning manoviy guruhlarini topib uni tahlil qilamiz.

145- mashq.

1. Tashqarida mayda yomg'ir **yog'ib turardi**. Yog'ib turgan yomg'irga qaramay, biz yo'lga otlandik. 2. Chavandoz yigit hikoyasini **aytib bo'lgach**, bir xo'rsinib qo'ydi. (Ertakdan) 3. „Rabot- qo'g'ichoq **lapanglap** yurib ketdi. 4. Botir bir zum **o'yga botdi**. 5. Bu masala ustida olimlar ko'p **o'ylashdi**.

Yuqorida ajratib ko'rsatilgan fe'llarni ma'noviy gurularga ajrating.

1. *Yog'ib turardi* – bunda harakat fe'li **yog'moq** ma'nosini bergan.

2. *Aytib bo'lgach* - nutqiy faoliyat fe'li **aytmoq** ma'nosida kelgan.

3. *Lapanglab* - bunda ham **lapanglab yurish** manosida kelgan.

4. *O'yga botdi* – aqliy faoliyat fe'li **kayfiyati yo'q** manosini bergan.

5. *Oylashdi* – bu ham aqliy faoliyat fe'li **o'ylamoq** ma'nosida kelgan.

148 – mashq.

Quyidagi berilgan yurish - harakat fe'llarini harakatning miqdori va tezligining osha borishiga ko'ra, o'sib borishi yoki kamayib borishiga ko'ra guruhlang. Bu fe'llar ishtirokida gaplar tuzib, ular orasidagi ma'no farqlarini tushintiring.

1) Qimirlamoq, chopmoq, yelmoq, chopmoqillamoq, sudralmoq, yurmoq, siljimoq, yugurmoq, emaklamoq, imillamoq,

2) kechmoq, sakramoq, hatlamoq, o'tmoq.

3) uchmoq, qo'zg'almoq, turmoq, ko'tarilmoq, balandlamoq, parvoz qilmoq.

A) Yurmoq fe'li – harakatning bajarilishi natijasida yuzaga keladi, buni ma'nodoshlari chopmoq – yugurmoq, emaklamoq – siljimoq, qimirlamoq-sudralmoq, yelmoq- chopqillamoq,

B) Sakramoq fe'li - manodoshlari balandlamoq- ko'tarilmoq, parvoz qilmoq- uchmoq, qo'zg'almoq- turmoq, hatlamoq- o'tmoq.

Misollar: **1).** *Toshbaqa qanchalik yuvosh bo'lsa ham, u sudralib yuradi.*

2) *Anvar darsga kech qolmay deb, maktabga yugurib keldi. 3).* *Qushlar osmonga chiroyli uchib ketdi.*

Demoq – fe'li muallif gapning kesimi bo'lib, ko'chirma gap bilan kelganda, *aytmoq, so'zlamoq, gapirmoq, so'ylamoq, so'zlari bilan almashtirilishi* mumkin. Lekin **demoq** fe'li ko'chirma gapsiz kelganda uni boshqa fe'llar bilan almashtirish mumkin emas.

Demoq - *aytmoq, so'zlamoq, gapirmoq.*

Ikromov, darsni nutq bilan so'zladi. Nargiza mavzuni gapirdi.

Demoq- ovozning past – baland ohangda bo'lishi. *Shivirlamoq, pichirlamoq, qichqirmoq, baqirmoq.*

Gulxayo sinfda pichirlab gapirdi. Tong sahardan xo'rozlar qichqidi.

Jismoniy harakat fe'llaridan **chiqmoq** fe'lining semantik xususiyatlari.

1 – *chiqmoq* fe'lining deyarli barcha ma'nolarini o'rganishga harakat qilmoqchimiz. “O'zbek tilining izohli lug'ati” (Toshkent: O'zME, 2008, 4-tom) da ko'rsatilishicha, *chiqmoq* fe'lining quyidagi ma'nolari mavjud:

S.Muhammedova o'zining doktorlik dissertatsiyasida chiqmoq 1 fe'lini Vertikal harakat fe'llarining «Pastdan yuqoriga yo'nalmoq» farqlovchi semasi guruhiga kiritadi.

Olimaning fikricha, ushbu fe'lda «faqat yuqoriga yo'nalmoq» semasi mavjud: "Mazkur ifodali fe'llar yuqoriga yo'nalgan tik harakatni anglatadi. Bunday harakatlarni inson, jonzotlar amalga oshiradi.

Ushbu fe'lning eng muhim semantik xususiyati – uning yuqoriga yo'nalgan harakatni aniq ifodalashidir.

Ya'ni bunda harakat muayyan nuqtagacha davom etadi.

Chiqmoq 1-«yuqoriga, narsa ustiga ko'tarilmoq Hoshimjon yugurib borib og'ilxonaning tomiga chiqdi (X.To'xtaboev)»⁶.

Demak, *chiqmoq* fe'lining eng birinchi, bosh ma'nosi yuqoriga yo'nalgan tik harakatni anglatishdir.

CHiqmoq 2 – biror transport vositasiga tushmoq, o'tirmoq, minmoq. *Avtobusga chiqmoq. Samolyotga chiqmoq* va b.

Kampir og'ir sumkasini sudragancha avtobusga zo'rg'a chiqdi, hech kim unga yordamga bermadi ham (so'zlashuv).

CHiqmoq 3 – biror harakatni amalga oshirish yoki biror narsaga erishish maqsadida muayyan joyga bormoq. *Do'konga chiqmoq. Suv ichishga chiqmoq* va b.

Qani, qizim, o'rningizdan turib, bir do'konga chiqib keling-chi! (so'zlashuv).

Demak, *chiqmoq 1* va *chiqmoq 2* vertikal, tik harakatni anglatadi, *chiqmoq 3* esa gorizontal harakatni bildiradi.

CHiqmoq 4 – biror maqsadda uzoq joyga bormoq, turgan joyidan uzoqlashmoq. *Yo'lga chiqmoq, safarga chiqmoq* va b.

Tayyorlaning, bir soatdan so'ng yo'lga chiqami

Akademik litsey darsliklarida fe'lning ma'naviy guruhlarini o'qitish ma'nolarini farqlash quyidagicha.

Akademik litsey darsliklarida fe'lning ma'naviy guruhlarining maktab darsligidan farqi shundaki akademik litsey darsliklarida fe'lning ma'naviy guruhlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish maqsadida ularni 9 turga bo'lib o'rganiladi.

Fe'lning ma'naviy guruhlari maktab darsligida esa 4 guruhga ajratilgan, akademik litsey darsligida esa ular 9 guruhga ajratib o'rganilishi sabab chunki har qanday harakat- holatni ifodalashiga ko'ra ularni o'zi bir qancha turlarga bo'linadi, va ular quyidagilar.

1. **Yumush fe'llari:** *ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi, va b.*

Dehqonlar kuz faslida hosil mo'l bo'lishi uchun mehnat qildi.

Maktabda o'qituvchilarimiz ertalabdan kechgacha ishladi.

⁶ **Муҳамедова С.** Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. док-ри... дис. - Тошкент, 2007, 88- б.

2. **Tafakkur fe'llari:** o`yladi, o`qidi, kashf qildi,
XX asr boshlarida bir qancha texnikalar kashf qilindi,
Alisher berilgan savolga javob uzoq o`yladi.

3. **Sezgi fe'llari:** sezdi, his qildi, kabi
Orqasida odam borligini endi sezdi.

Nafisa o`qishga kirgach, ota – ona mehrini his qildi.

4. **Ruhiy holat fe'llari:** kuldi, xursand bo`ldi, qayg`urdi, iztirob chekdi,
O`ylagan niyatlari amalgam oshgandan xursand bo`ldi.
Umida hayot tashvishlaridan iztirob chekdi.

5. **Nutq fe'llari:** gapirdi, so`zladi, bayon qildi, ifoda qildi, ming`illadi,
do`ng`illadi.

O`qituvchisi gapirganidan Anvar do`ng`illab chiqib ketdi.

Shoirilar suhbatini uzoq bayon qildi.

6. **Ishora fe'llari:** imo qildi, labini burdi, ko`zini qisdi, va b.

Kumush Otabekga labini burdi. (A. Qahhor.)

Onasi dadasiga ko`zini qisdi, va dalaga chiqdi. (A. Muxtor.)

7. **Jismoniy holat fe'llari:** og`ridi, isitma qildi, xastalandi, sog`aydi,
kuchaydi, charchadi, kabi.

Onasi kechasi bilan isitma qildi. (A. Qahhor. Bemor.)

Kundan- kunga dardi kuchaydi. (Bemor h)

8. **Tabiiy holat fe'llari:** eridi, muzladi, yetdi, uxladi,

Bola kechasi bilan uxladi.

Bahor kelib qorlar eridi.

9. **Ko`rish fe'llari:** qaradi, ko`rdi, boqdi, termuldi.

Ulug`bek osmonga uzoq termuldi.

Yigit daraxt tagida yig`lab turgan qizni ko`rdi. (Ertakdan)

Yuqoridagi fe`l turlarining har qaysisi bir necha fe'llarni o`z ichiga oladi.
Bu fe'llar harakat – holat ma`nosini qanday ifodalashi bilan bir biridan farq qiladi. Quyidagi farqlanishni kuzatamiz.

1. Harakat –holatning kuchli kuchsizligiga kora farqlanishi; jilmaymoq-
kulimsiramoq- kulmoq.

Xadicha dugonasiga kulib gapirdi. O`qituvchimiz mavzuni kulimsirab
tushintirdi.

2. Ijobiy va salbiy bahoga ko`ra: kulmoq – tirjaymoq, so`zlamoq –
to`ng`illamoq, ming`illamoq.

3. Uslubiy xoalanishiga ko`ra: kulmoq ( umumiste`moldagi so`z) – tabassum
qilmoq, (badiiy uslubga xos) so`zlamoq kabi.

295 – mashq.

Quyidagi berilgan matndan fe'llarni toping va bu fe'llarni harakat va holat bildiruvchi fe'llarga ajrating.

Taqdir sinoviga g`am chekma sira.

Niyatni to`g`ri qil yosh to`kma sira,

Kelajakning nurli cho`qqisiga boq,

Ezgulik ishini tark etma sira. (Q. Parpiyev.)

1. Ruhiy holat fe`li, g`am chekma, tark etdi.

2. Nutq fe`li, *niyat qildi*,

3. Ishora fe`li, *boqdi*,

Akademik litsey darsligida fe`lning ma`noviy guruhlarini qanday harakat – holatni ifodalashiga ko`ra turlarga bo`lib o`rganiladi. Har qaysi gurihini o`quvchiga misollar orqali tushintirilsa maqsadga muvofiq bo`lib, o`quvchining og`zaki va yozma nutqi shakllanadi, va mustahkamlanadi.

II Bob Ona tili darslarida yangi inovatsiyon texnologiyalarning o`rni.

Ona tili ta`limi dunyoning barcha burchaklarida barcha zamonlarda insonni komillikka yetkazishdagi favqulodda muxim jarayonlardan biri sifatida qaralgan. Ona tili darslari oldiga qo`yiladigan vazifalar va ularni amalga oshirish yo`llari, xar qanday mukammal dastur asosida yaratilgan takomillashgan darslik samarador usullar bilan o`quvchilar ongiga singdirilgandagina kutilgan natija beradi.⁷

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o`z o`rni o`z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatlaridan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo`lishlar, o`z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo`lgan so`z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo`llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o`qituvchisi o`z iqtisosini puxta bilishi, ilg`or pedagogic teznalogik texnalogik hamda zamonaviy o`quv texnik vositalardan yaxshi xabardor bo`lishi lozim. O`quv mashg`ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil etish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish ayni kunda o`qituvchilik faoliyatining bosh mezoni hisoblandi.

An`anaviy yo`nalishdagi dars didaktik maqsadiga ko`ra; yangi bilimlarni o`zlashtirish, o`rganilgan bilimlarni amaliy tadbqiq qilish orqali mustahkamlash, o`tilganlarni takrorlash kabi turlarga ega ekanligi ma`lum.

Innavatsion texnalogiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiruvchi vositadir. Bu ta`lim talabalarning bilimlarini mustaqil egallashga undovchi o`qitishning muammoli uslubidir. Ta`limning ushbu turiga muvofiq talabalar bilan munozaralar, didaktik o`yinlar maxsus ijodiy topshiriqlar o`tkaziladi.

- Innavatsion texnalogiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo`llash, talabaning ta`lim jarayondagi o`rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta`minlash mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Quyida ilg`or pedagogik texnalogiyaga asoslangan dars turlarining o`ziga xos tomonlari haqida fikr yuritamiz.

Musobaqa darslari.

Ona tili ta`limida musoboqa darslarini o`tkazishdan maqsad o`quvchining til darsda olingan bilimlarini sinab ko`rish, o`zaro munozara- muloqot, jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana olish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir. Musoboqa darslari o`quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini

⁷ O`zbek tili va Adabiyoti jurnali 2013- yil. 5- son 7- b. Zamonaviy Ona tili ta`limi. Nizomiddin Maxmudov. F .f. dok-ri. Professor.

shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy fikrlashga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musoboqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Musoboqa darslari uchun mavzular: "So'z harfidan so'z yasang" "So'zshunoslar anjumani" "Nutq tovushlarining siri" "Zakovat" darslari kabilar mavjud.

Bahs- munozara darslari.

Bahs munozara darslarida yechib ulgirilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarish bilan farqlanadi.

Bahs- munozara o'quvchilardan huchyorlikni talab qiladi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida o'ylashga o'z fikrini mantqli va izchil o'rganishga o'rgatadi.

O'zaro tortishuv va bahs munozara oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs- munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinhladi, o'z "men" ini anglab yetadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy- ijodiy tafakkuri ko'lam haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. O'z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga soladi va til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o'rganadi.

Dars mashg'ulotlarini rang- barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qilolgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, do'stlariga munosabati, muomla madanyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati aniq tasavvurga ega b'ladi.

Innavatsion texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. Bunday ilg'or texnologiyalar asosida o'tilgan darslarda o'quvchi o'zini erkin his qiladi, mashg'ulotlarga qiziqishi, so'z san'ati bilan shug'ullanishga, ijodga rag'batlari ortadi.

Mustaqillik yillarida ta'lim va tarbiya tizimi ham mustaqillik mafkurasini yangilagan pedagogik tafakkur tamoyillariga tayangan xolda, jiddiy yangilanishlarga yuz tutdi. Mamlakatimizda mustaqil fikrli bilimdon, ijodkor, yaratuvchi, ma'naviyati yuksak bo'lgan shaxsni shakllantirishga, uni xar tomonlama yuksaltirishga, aqliy hamda ruxiy kamolotini ta'minlashga, jaxon sivilizatsiyasiga uyg'un xolda, raqobatdosh kadrlarni tayyorlashga jiddiy e'tabor qaratilgan.

Bu respublikamizdagi xar bir olim va pedagog tarbiyachi oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi.

Ilg'or metodist o'qituvchilarimiz dars samaradorligini oshirishning yangi vositalarini o'ylab topmoqdalar. Bular esa o'z navbatida darsni zamonaviy o'quv texnika vositalariga tayanib tadbqiq etish usullarini ishlab chiqmoqdalar.

O'qituvchilarimizni adabiy ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirishi va tadbqiq etishlarida ko'pgina qiyinchiliklar sezilib turibdi. Bu sohadagi ishlar ham kengroq ko'lamda davom etishi, amalyotchi o'qituvchilarimizga pedagogik tajribalarda sinovdan o'tgan, samaradorlik darajasi ancha yuqori bo'lgan shakl va usullar tizimini tezroq tavsiya etish dolzarbligicha qolmoqda.

Bo'lajak mutaxasislarning shu soxada puxta bilim olishlari, bu boradagi tegishli ko'nikma va malakalarni egallashlari ularga saboq berayotgan ustozlarga ham bog'liq.⁸

II 1. Fe'l so'z turkumini o'rganishda interfaol usullardan foydalanish.

Yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga xurmat tuyg'usini shakllantirishda, ularda milliy iftixor tuyg'usini tarkib toptirishda ona tilining o'rni beqiyos. Yurtboshimiz I. Karimovning " Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi... " deb aytgan so'zlari shu ma'noda katta ahamiyatga ega.

Bu vazifani amalga oshirishda ona tili fani o'qituvchilarining o'rni beqiyos. Fan o'qituvchilari ilg'or tajriba, fan yutuqlari bilan qurollangan bo'lishi kerak. Hozirgi kunda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni ro'yobga chiqarishning navbatdagi bosqichi ham til ta'limi xodimlari oldiga ta'lim mazmuniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng qamrovda tatbiq etish vazifasini qo'ymoqda.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da yuqori malakali ilmiy kadrlarni ko'zda tutilgan yuksak talablar darajasida tayyorlash uchun pedagogika institutlarida ta'lim jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasi ta'lim tizimimizda ilmiy nuqtai nazardan hozirgi kunda o'z echimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ayniqsa, fe'l so'z turkumini o'rganish jarayonida nutqiy barkamollikni ta'minlashning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish tobora ko'proq hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi.

Fe'lni o'quvchi nutqidagi ahamiyati beqiyos ekan, demak, uni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish ham muhimdir.

Hayotimizda sodir bo'layotgan buyuk o'zgarishlar, qudratli islohotlar jarayoni, uzluksiz ta'lim tizimidagi innovatsiyalarning shiddatli ravishda jadallashuvi nutq o'stirish, keng mushohada qilish qobiliyatini shakllantirish muammolarini vujudga keltirmoqda.

O'qituvchi ona tili mashg'ulotlarini shunday tashkil etmog'i lozimki, dars jarayonida bajariladigan topshiriqlarning 35-40 foizini yozma topshiriqlar, qolgan qismini og'zaki xarakterdagi topshiriqlar tashkil etadi.

O'quvchilar muayyan bir mavzuni turli shakllarda bera bilish, o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko'nikmalarini egallash orqali ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Demak, eshitish, anglash, mulohaza yuritish, kuzatish, izlanish, sharhlash, qiyoslash, umumiylik va farqlarni aniqlash, hukm (xulosa) chiqarish, aloqadorlikni aniqlash, nutqda qo'llash kabi eng muhim metodik usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish,

⁸ Adabiy Ta'lim muommolari. B To'xliyev. F. f dok-ri professor. 2012- yil 3-4 betlar.

ularning ongida ma'naviy – ma'rifiy inqilob hosil qilishga urinish DTS da belgilanganidek davom etmoqda. DTS belgilanganidan buyon dastur va darsliklarda grammatik qoidalarini yodlatishdan voz kechilib, asosiy e'tibor ijodiy tafakkurni shakllantirish, o'quvchilarning nutqiy malakasini o'stirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Ta'lim usuli, asosan, induktiv. SHuning uchun mashg'ulotlarda faol ishlovchi o'quvchining o'zidir. Induktiv usulda o'quvchilarga til xodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlariga ajratish, umumlashtirish kabi talablar qo'yiladi. Bu hodisalarni bajarishda o'quvchilarning aqliy faoliyati charxlanadi va o'quv materiallarini tushunish osonlashadi. Ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usul o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. SHu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Interfaol usullar bu – o'qituvchi va o'quvchi, hamda o'quvchilararo o'zaro birgalikdagi harakatdir. “Interfaol ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, “interact” so'zidan olingan. “inter” bu - o'zaro, “act” – harakatdir. Interfaol usullarda o'qitish o'quvchilardan yuqori faollikni, olingan ma'lumotlarni to'la anglashda ijodiy yondashuvni talab etadi. Interfaol o'qitishning asosiy mezonlari bu –norasmiy munozaralarni o'tkazish, o'quv materiallarini erkin ifodalash, ma'ruzalar sonini kamaytirish, o'quvchilarni tashabbuskorlikka chorlash, jamoaviy individuallikni talab qiladigan guruhviy vazifalar va yozma ishlarni bajarishdir. O'zaro faollashish orqali individual, juft-juft yoki jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi. Ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Interfaol dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarning ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. O'qituvchi o'quv jarayonini tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchining sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchining bilimini sinashi, ko'nikma va malakalarini aniqlashi, uning shaxsiy fikrini bilishi uchun albatta to'g'ri savol qo'ya olishi kerak. Savol berishda quyidagilarni inobatga olish lozim: savollar qisqa va aniq bo'lishi;

- bitta savol bilan bitta narsani so‘rash;
- savol aynan mavzuga doir bo‘lishi;
- savoldagi so‘z o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi;
- oddiydan murakkabga, soddadan umumiyga borishi;
- “yopiq” savollarlan foydalanmaslik, ya’ni “ha”, “yo‘q” yoki “to‘g‘ri”, “noto‘g‘ri” deb javob beradigan, yoxud darslikda javob to‘liq aks etgan, o‘quvchini takrorlashga majbur qiladigan savollarni ishlatmaslik;
- o‘quvchiga shaxsiy tajribasiga asoslanib javob bera oladigan savollarni berish;
- o‘quvchiga o‘z fikr-mulohazalarini, o‘z munosabatini bildiradigan savollarni berish;
- javob bera olmaydigan savollarni bermaslik;
- biror bir savolga javob olganda “nima uchun?” , “nega sen bunday deb o‘ylaysan?” degan savollar bilan tez-tez murojaat

qilib turish kerak;

-sinfga yoki o‘quvchiga savol berganda, albatta, javobni ma’lum bir muddat kutish kerak.

Interfaol usullar xilma xil bo‘lib, qaysi metodni tanlash o‘qituvchining o‘tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog‘liq. Ona tili darslarida “Fe’l so‘z turkumi” ni o‘tishda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlarida, darsda faol bo‘lishlarida, o‘tilgan mavzular bo‘yicha bilimlarni chuqur va mukammal o‘zlashtirib olishlarida katta samara beradi.

“Guruhlarga bo‘lish”

Hozirgi kundagi ilmiy-metodik tamoyillardan biri ta’lim jarayoni qatnashchilari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlashdan iboratdir. Ma’lumki, insondagi ezgu sifatlar jamoaga qo‘shilib faoliyatga kirishganda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Hayotda bo‘lgani kabi o‘qish jarayonida ham birgalikda qilingan faoliyat ko‘proq samara berishi juda qadim zamonlardayoq ma’lum bo‘lgan. O‘quvchilarni guruh qilib o‘qitish tajribasi ham bejiz paydo bo‘lgan emas.

Pedagogikadagi hamkorlik birgalikdagi ta’limni ko‘zda tutadi. Bunda o‘quvchilar bilan o‘qituvchi orasidagi hamkorlikdan ko‘ra o‘quvchilar bilan o‘quvchilar orasidagi o‘zaro sheriklik ta’minlanishi kerakligi ko‘zda tutiladi.

Birgalikdagi ta’limni yo‘lga qo‘yishda o‘quv guruhi bir necha kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir kichik guruh a’zosi o‘ziga tegishli o‘quv muammosini to‘la hal etgunga qadar ishlaydi. Guruhdagi hamma o‘quvchilar muammoni birgalikda hal etadi yoki barchalari yomon baho oladilar.

Til ta’limida o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib ish olib borishning samarali ekanligi o‘z isbotini topgan. Guruhlarga bo‘lishni turli shakllarda amalga oshirish mumkin. Jumladan, bir xildagi kichik qog‘ozlarga fe’l nisbatlari nomlari yoziladi. Qog‘ozlar o‘quvchilar soniga qarab 4 yoki 5 tadan bo‘lishi lozim. Bu qog‘ozlar, albatta, stol ustiga teskari holda

aralashtirib qo'yiladi va o'quvchilar birin-ketin qog'ozlardan bittadan oladilar. Guruhdagi barcha o'quvchilar qog'ozlarni olib bo'lgandan so'ng undagi fe'l nisbatlariga qarab guruhlariga birlashadilar.

Masalan:

“Aniq nisbat” guruhi

Lola
Akmal
Barno
Aziza

“O'zlik nisbat” guruhi

Dildora
Dilshod
Jahongir
Nilufar

O'quvchilar guruhlariga bo'lingach, har bir o'quvchi o'z guruh nomidan kelib chiqib ma'lumot to'playdilar va bittadan ma'lumot aytadilar.

Namuna: **“O'zlik nisbat” guruhi**

Dildora: Bajaruvchining o'zi ustida amalga oshiradigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli o'zlik nisbat deyiladi.

Dilshod: O'zlik nisbati shakli fe'l asosiga –(n) –in, -(l)-il qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi.

Jahongir: Unli bilan tugagan fe'l asosiga o'zlik nisbatning –n yoki –l, undosh bilan tugagan fe'l asosiga –in yoki –il qo'shimchalari qo'shiladi.

Nilufar: O'zlik va majhul nisbat shakllari bir xil, lekin ular harakat yoki xolatning bajaruvchisi nuqtai nazaridan farq qiladi.

Bu usuldan fodalanish o'quvchilarni birgalikda, sheriklikda o'qishga odatlantiradi, ularda jamoani his etish tuyg'usini shakllantiradi. Shuningdek, o'zgalar uchun javobgarlik hissini uyg'otadi.

“Guruhlariga bo'lish” usulini yangi mavzuni o'tishda ham, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilar o'rganilayotgan mavzu yoki uning bir qismini, biror nazariy tushanchadan foydalangan holda birgalikda mustaqil o'zlashtiradilar va og'zaki tarzda javob beradilar. Bu kabi usullar o'quvchilarni og'zaki fikrlashga va hozirjavoblikka undaydi.

“Aql mashqi”

Bunda har bir o'quvchiga quyidagi ko'rinishdagi VTN STNDN BSHLND harflaridan iborat tarqatma materiallar beriladi, topshiriq shuki, o'quvchilar berilgan undosh harflar orasiga unli tovushlarni tiklagan holda undagi ibratli so'zni o'qib, ma'nosini izohlab berishlari va asosiysi undagi fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlab ularni tagiga chizishlari kerak.

Namuna: VTN STNDN BSHLND – Vatan ostonadan boshlanadi.

Tarqatma materiallarga quyidagicha yozish mumkin.

BLBL CHMNN SVR, DM VTNN

VTNN SVMQ YMNDNDR

QSH YASD KRGNN QLD

TLNGD BLS BLNG, KLB TRR QBLNG

YTLGN SZ, TLGN Q.

Dars jarayonida bu usuldan foydalanish o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga diqqat bilan ijodiy yondoshish va yana o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga yordam beradi.

“Qora quti ”

Bu usulni ko‘proq ona tili darslarida, ba‘zan adabiyot darslarida ham qo‘llash mumkin. Ushbu metod asosida yechiladigan muammolar aniq vaziyatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Ishtirokchilarni maxsus, maqsadga muvofiq qo‘yilgan savollarga undaydi.

“Qora quti” usulida bir o‘quvchi chiqib, o‘tilayotgan mavzuga doir

biror atamani yozuv taxtasiga yozadi. Ikkinchi o‘quvchidan mana shu atamaga doir ma’lumot so‘raladi. 2- o‘quvchi yozilgan atamani to‘g‘ri izohlay olsa, 1-o‘quvchi joyiga o‘tiradi. 2-o‘quvchi yuqoridagi tartibni davom ettiradi. Shu tariqa barcha ma’lumotlar “qora quti” ga yig‘iladi.

Namuna:

1-o‘quvchi: Aniq nisbat.

2-o‘quvchi: Bajaruvchisi aniq bo‘lgan harakat yoki holatni bildirgan fe‘l shakli.

2-o‘quvchi: Orttirma nisbat.

3-o‘quvchi: Bajaruvchining ta’siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat holatni bildiruvchi fe‘l shakli.

Bu usulni darslarda o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Fe‘l nisbatlariga doir bunday topshiriqlarni bajarish o‘quvchilarning o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini yuksaltirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, bugungi kunning o'qituvchi va o'quvchisiga talablar mezoni tamoman boshqachadir. U shunchaki savodi, bilimi va qobiliyati bilan ajralib turuvchi emas, balki ishbilarmon va tashkilotchi, ijodkor, o'z bilim va malakalarini hayotning murakkab sharoitlarida mohirona qo'llay oluvchi, yuksak madaniyatli bo'lmog'i lozim. O'qituvchi uchun vaqt-sinov, har bir dars- tajriba, erishilgan natija- saboq, ta'lim tarbiyada qo'yilgan ta'mal toshi esa, kelajakdir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning bilimini mustahkamlaydi, ayniqsa, nazariy saviyasini oshiradi, mustaqil va chuqur fikrlashga o'rgatadi, ijodkorlikka chaqiradi, nazariyani amaliyot bilan o'z vaqtida asosli va mustahkam bog'lash uchun xizmat qiladi. Aynan zamon talabiga javob beruvchi darsni tashkil qilish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zida ijodkorlik, o'z ustida tinimsiz ishlash, qobiliyat va mahorat talab qilinadi.

Darhaqiqat, o'qituvchilik ma'suliyatli va sharaflilik kasbidir. Bu kurs ishimda ana shunday sharaflilik kasbning yana bir qirrasini ochib berishga harakat qildim.

Kurs ishimda akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6 sinflarida "Fe'lning ma'naviy guruhlarini"ning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, shu mavzu doirasida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rnini beqiyosligi haqida mushohada yuritishga harakat qildim..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Karimov I.A.** Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- 2 **O'zbekiston Respublikasining** “Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent.:SHarq, 1997.
3. **O'zbekiston Respublikasining** “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent.: SHarq 1997.
4. **Karimov I.A.** Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent.:SHarq, 1997.
5. **Saidahmedov N.** Pedagogikada yangicha yondashish. -Toshkent, 2002.
- 6.**Saidahmedov N.** Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent.:Moliya, 2003.
- 7.**Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N.** Hozirgi o'zbek adabiy tili Akademik litseylar talabalari uchun darslik. - Toshkent.:O'qituvchi, 2001
8. **Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Qosimova N.** Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar o'quv dastur. -Toshkent, 2000.
- 9.**H. Ne'matov, A. G'ulomov, M.Qoqirov, M.Abduraimova.** “Ona tili.” Darslik. Toshkent “ O'qituvchi “ 2002- yil.
- 10.**T. Niyozmetova.** Adabiy ta'lim muammolari. Metodik qo'llanma. T. 2012. yil 10.b.
- 11.**Begmatov E.** Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan, 1985. -200 b.
12. **B.To'xliyev, M,Shamsiyeva, T.Ziyodova.**O'zbek tili O'qitish Metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. T. 2006.115 b.
13. **Muhamedova S.** O'zbek tilida harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari: Filol.fan.d-ri...dis.-Toshkent, 2007.-325 b.
14. **Nurmonov A., Mahmudov N.** O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent 1995.yil. 115 bet.
15. **Ona tilidan takomillashtirilgan o'quv dasuturi.** // Til va adabiyot ta'limi. 2006, №6, -B. 10.

16. Ona tilidan takomillashtirilgan DTS va o‘quv dasturi. // Til va adabiyot ta’limi. 2006, №5, -B.

17.Rasulov R. O‘zbek tili fe’llarining ma’no tuzilishi.-Toshkent, 2001.-171 b.

18.Sodiqova M.S. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida fe’l stilistikasi (semantik aspektda): Filol.fan.d-ri...dis.-Toshkent, 1991.-288 b.

19.SHaripova O‘. O‘zbek tilidagi yumush fe’llarining ma’no valentliklar: Filol.fan.nomz...dis.avtoref.-Toshkent, 1996.—19 b.

20.Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.-164 b.